

ABDULLA QODIRIYNING “O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDA O‘ZBEK OTASI TASVIRINING POETIK SUVRATLANISHI

Suyunova Zarina Muzaffar qizi

+998938909197

www.zarina97suyunova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada birinchi o‘zbek romanida tasvirlangan yurt otasi obrazi tahlil qilingan. Yusufbek hojining davlat miqyosidagi tadbirlari hamda oila a‘zolari bilna bo‘lgan munosabatlarda tarbiyasi, uzoqni ko‘ra biladigan shaxs sifatida gavdalantiradi.

Kalit so‘zlar: Yusufbek hoji, davlat amaldorlari, xon istibdodi, adolatpeshalik otalarcha mehr, milliylik, itoatlilik

Asarning bosh qahramoni, millat ertasi timsoli, ilk syujetni ifodalovchi obraz Otabekdir. Asar uning hayotida bo‘lgan voqealar bilan birgalikda kechadi. Muallif tomonidan “og‘ir tabiatlik, ulug‘ gavalik, ko‘rkam va oq yuzlik, kelishkan qora ko‘zlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabz urgan bir yigit” deya ta’riflangan bu yigit yigirma to‘rt yoshda edi. Uning davlat boshqaruvi haqidagi qarashlari Shamayga savdo-sotiq uchun qilgan safari o‘sadi. Abdulla Qodiriy Otabekni mavjud ijtimoiy tuzimga o‘z nuqtai nazariga ko‘ra baho bera oluvchi shaxs, atrofini o‘ragan muhitdan yuqori turuvchi, xalqparvar, xalq uchun qayg‘uruvchi yurtning ertangi kuni sifatida tasvirlaydi. U xonliklarni butunligicha og‘darishni emas, balki davlat idorasiga davlatni adolat bilan boshqaruvchi xon kelishi tarafdori hisoblanadi. U ishq yo‘lida har qanday jasoratni amalga oshiradi. U har bir ishni avvalo yurak amri va aql tarozisida o‘lchab bajaradi. Otabekning jasurligi Musulmonqul qarshisida turganda: “Siz meni qanday tanig‘an bo‘lsangiz-bo‘lingiz, men o‘shandog‘ kishining o‘g‘li,-dedi bek. – Men bilan otam siz bilan qushbegiga necha turlik bo‘lib tanilsaq-da, o‘z vijdonimiz oldida bir turlikkinadurmiz! Shuning uchun siz tilagan tarafingizga hukm qilingiz-da, buyrug‘ingizni beraveringiz!” deb aytgan so‘zlaridan ham bilishimiz mumkin. Otabek otasi oldida ham, onasi oldida ham o‘zining yuksak tarbiyasini namoyon etadi. Yusufbek hoji bilan O‘zbek oyim o‘g‘lini Toshkentdan uylantirmoqchi bo‘lgandagi holati:

-O‘g‘lim, hali san eshitdingmi, yo‘qmi haytovur biz saning ustingdan bir ish qilib qo‘ydiq.

-Aqllik kishilarning o‘g‘ullari ustidan qilgan qilg‘an ishlari albatta noma‘qul bo‘lmas”. Otabek aql-farosatdan bebahra qolmagan, ota-onasining istaklarini ham yaxshi bilgani holda, shu tarzda javob qaytaradi. Bu javobdan haqiqiy millat otasi bo‘lmish Yusufbek hoji mulzam qolishga majbur bo‘ladi.

Otabek nohaqlikka qaray olmaydiigan yurt kishisidir. Qipchoq qirg'inidan so'ng Otabek uyga borib kechki oshni ham yemadi, otasiga ham ko'rinmadi. Yirtqichlar dunyosidan berkingandek ko'rparasiga o'ranib oladi. Nima bo'lgan taqdirda ham Otabekning yoshligi, hali g'orligi ko'rinadi. Chunki siyosiy o'yindan qochib ko'rpaning ostiga yashirinish go'daklar ishiga xosdir. Buning o'rniga otasidan bor haqiqati so'rab bilish hamda nohaq qon to'kuvchilarni topib ularni jazolashga kirishishi lozim edi.

Yana bir shunday obraz borki xarakter jihatidan mukammal tarzda tasvirlanuvchi millat otasi bo'lmish Yusufbek hojidir. Uning tashqi ko'rinishi deyarli tasvirga olinmaydi. Xarakter jihatidan esa uning bir qiziq odati haqida gapiriladi: "Yusufbek hoji xotini bilangina, emas, umuman uy ichisi bilan har qanday masala ustida bo'lsa bo'lsin uzoq so'zlashib o'lturmaydur. Otabekmi, onasimi, Hasanalimi, ishqilib uy ichidan birartasining so'zlari va yo kengashlari bo'lsa, kelib hojining yuziga qaramasdan so'zlay beradilar; maqsad aytib bitkandan so'ng sekingina ko'tarilib uning yuziga qaraydirlar. Hoji bir necha vaqt so'zlag'uchini o'z og'ziga tikiltirib o'lturg'andan so'ng, agar ma'qul tushsa "xo'b" deydir, gapka tushunmagan bo'lsa "xo'sh" deydir, noma'qul bo'lsa "durust emas" deydir va juda ham o'ziga noma'qul gap bo'lsa bir iljayib qo'yish bilan kifoyalani, mundan boshqa so'z aytmaydir va aytsa ham uch-to'rt kalimadan nariga oshmaydir. Uy ichi uning bu fe'liga juda yaxshi tushunganliklaridan ko'pincha bir og'iz javob olish bilan kifoyalaniadirlar. Ammo Otabek bilan birar to'g'rida so'zlashmakchi bo'lsa, uni aksar mehmonxonaga chaqirib yoki chaqirtirib oladir".¹ Yusufbek hojining bu odati uning oila a'zolariga nisbatan bir xil pozitsiyada ekanligidan dalolat beradi. Yusufbek hoji davlat ishlarida ham adolatli bo'lganidek, oila a'zolariga nisbatan ham o'sha adolat tarozisi ishlaydi. Chunki Kumushbibi kelishi arafasida O'zbek oyimning kundashi kelishini Zaynab bilishi shart emas qaroriga qarshi tushib uni ham bundan xabardor etishga, shuning bilan bir qatorda kundoshi bilan ahil yashashga so'z oladi. Yusufbek hojining adolatining yana bir ko'rinishi kundoshlar o'rtasida chiqib turgan tortishuvlardan xabar topsa, ikkala kelinni ham yoniga chaqirtirib, ikkalasini ham qator o'tqizib qo'yar, avval Kumushdan o'pkalanib uning yoshi kattaligini, kattadan kichikka shafqat lozimligi haqida gapirar, Zaynabga esa hali yoshlik g'ururi ketmaganligini, shunday bo'lsa ham Yusufbek hojining farzandi ekanligini unutmastikni tayinlar, so'ngra bir-birisiga salom berdirar edi. O'zbek oyimning nabira ko'rish masalasida ortiqcha dabdalgarga ishtiyoqini Zaynabning ko'ngli sinib qolishi ehtimoli yuzasidan qaytarar, ba'zida esa Zaynabning ko'ngliga qarashni, unga ozor bermastikni tayinlar edi. Yusufbek hoji shaxsiyati u mutolaa qiladigan "Daloyil" va "Qur'on" kitoblaridan ham bilib olishimiz mumkin. Yusufbek hojining xalqparvarligini Azizbek oldidagi qilgan xizmatlari hamda Muhammad Rajab qo'rboshining uyida bo'lgalar rejalashtirayotgan qipchoq urug'i vakillariga nisbatn qo'llanilayotgan qirg'inga qarshi chiqishi haqidagi to'lqinlanib so'zlaganlaridan ham bilib olishimiz mumkin. Yusufbek hoji uzoqni ko'ra

¹ Abdulla Qodiriy. Tanlangan asarlar. T.: "Sharq" nashriyoti. Toshkent-2018. B102.

oluvchilik qobiliyati bilan rus askarlari eshik ostonasida yurtda nifoq chiqishini poylab turgani, yurtni kofirlar bossa kelajak avlodning bo‘yniga sitam arqonlarini bog‘lab uning uchini ruslar qo‘liga topshirishning natijasida kelib chiqadigan vaziyat haqida yozg‘irganligi guvohi bo‘lamiz. Yusufbek hojihar bir ishga aql doirasida o‘ylab harakat qiladi. Yusufbek hoji obrazi yozuvchining Turkiston ijtimoi, iqtisodiy, siyosiy hayotiga tegishli qarashlarini xalq ommasiga yetkazuvchi vazifasini o‘taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar. -T.: Yangi asr avlodi, 2011
2. Jabborov N. O‘tkan kunlarda milliy ruhiyat talqini. -T.: Sharq, 2019
3. Jo‘raquloov U. Qodiriy va roman tafakkuri. - T.: Nurafshon business, 2020
4. Karimov B. Qodiriy germinetikasi. –T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2017
5. Mirzayev T. Va boshqalar. O‘zbek xalq maqollar. - T.: Sharq, 2005
6. Qosimov B. Quyosh borligiday oydin haqiqat /Uyg‘ongan millat ma’rifati. – T.: Ma’naviyat, 2011.
7. Qo‘shjonov M. O‘zbekning o‘zligi/Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 2018.
8. Suyunova Z. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida milliy ruhiyat talqini/ magistrlik dissertatsiyasi. – T.: Toshkent. 2022.